

JADID ULAMOLARNING BADIY ADABIYOTLARDA AKS ETISHI

Eshbekova Dildora¹

Ergasheva Xurshida²

Nukus shahri 32-sonli maktabi¹

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti²

KEYWORDS

jadid, hayot yo'li, O'rta Osiyo, Turkiston, milliy-ozodlik, usuli-jadid, ma'rifatchilik.

ABSTRACT

ushbu maqolada jadid harakati va ulamolarining vujudga kelishi va ularning qiyinchilikda kechgan umri. Keyinchalik jadid ulamolarining hayot yo'lini badiiy adabiyotda aks ettirilishi masalalri ko'rib chiqilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15306415**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yigirmanchi asr boshlarida O'rta Osiyo, Kavkaz, Kavkazortida, Qozon va Qrimda ko'plab ziyolilar Chor Rossiyasining istibdodi tufayli qoloq ahvolga tushib qolgan, xalqning ijtimoiy-madaniy turmushi, ongi saviyasini ko'tarib, taraqqiy ettirish maqsadida juda kata ma'rifatchilik ishlari olib borilgan edi. Milliy-ozodlik kurashining kuchayishi bois Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish davri ham ana shu davr voqealariga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyodagi yangi tarixiy vaziyat taqozo etgan ma'rifatparvarlik harakatlari sekin-asta yalpi jadidchilik harakatiga aylangan edi. Ma'rifatchilik harakatining ildizlari esa, bir tomondan, Sharqning azaldan ma'rifatga tashna bo'lgan qatlami ziyoli kishilarning oilaviy an'alariga, ikkinchi tomondan esa, mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lishning birdan-bir yo'li ilm-ma'rifat deb bilgan kishilar tafakkuriga bog'lanadi.

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining turmush tarzi va tarixiy qadriyatlarining shakillanish jarayonini o'zida jam eta olgan amaliy kuch sifatida maydonga keladi.

Tarixdan bizga ma'lumki, bu davrda o'lka xalqlari jahon taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketgan edilar. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmushi, ongi-saviyasi achinarli bir ahvolda bo'lib, turmushning hamma sohalari rivojlanishdan sekinlab, qoloqlikka yuz tuta

¹ Nukus shahri 32-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

² O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor-o'qituvchisi

boshlagandi.

Jadidchilik harakatining namoyondalari hisoblanmish ziyolilar bu orada Yevropa usuldagi teatr to'garaklari tuzdilar, turli gazeta va jurnallar chiqardilar. Teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmni o'rgatadigan "usuli jadid", ya'ni, yangicha, ilg'or usuldagi maktablar ochdilar.

Jadidlarning maktablar ochishdan maqsadi, xalq ommasini savodxon qilish va ayni paytda yangilanayotgan zamonning munosib farzandlarini tarbiyalash edi.

Jaholatning ildizini ilmsizlikda deb bilib, jaholat qurboni bo'layotgan turkiy xalqlar farzandlarini ilimli qilish edi. Bu haqda ma'rifatchi alloma Alixonto'ra Sog'uniy: "ongi ochilmagan, bilimsiz millat o'z dushmanlari oldida qushxonaga haydalmogda bo'lgan bir to'p hayvondan hech qanday ayirmasi yo'qdir. Insonning o'ziga eng yaqin halokatning dushmani ongsizlik, ilmsizlikdir. Shunga ko'ra, Alloh taola Qur'onning birinchi surasini "o'qish, bildirish, yozish va qalam bilan boshlanmish edi". –deb yozganda naqadar haq edi.

Jadidchilik Turkiston xalqlariga ma'rifat, tenglik, ozodlik degan tushunchalarni olib kirdi. Ular "Tilda, fikrda, ishda birlik" shiori ostida harakat qildilar. Og'ir bir sharoitda Buxoro va Turkiston aholisini o'qimishli, savodli qilib, ijtimoiy va siyosiy hayotida o'zgarish yasashga harakat etdilar.

Jadidchilik harakati avval-boshdan mavjud kitoblarga isloh kiritishnigina talab qilib chiqqan bo'lsa, keyinchalik maorif tizimini butunlay yangilash shiorini ilgari surdi. So'ngroq esa, Turkiston o'lkasidagi bu harakat madaniy-ma'rifiy yo'nalish bilan bir qatorda siyosiy va ma'muriy islohotlar o'tkazish talabi bilan chiqdi.

Ular o'z maktablarida mahalliy millat farzandlaridan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar. Markaziy Osiyoda bu harakatning markazlari Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Toshkent shaharlari bo'ldi.

"Yangichi"lar "Qadimchi"lar qarshi o'laroq milliy-ozodlik harakatini rivojlantirishda kattagina rol o'ynadilar. Keyinchalik 1917 yil noyabrda e'lon qilingan "Turkiston muxtoriyati"ning asoschilari ham o'sha "yangicha" –jadidchilar edilar.

Jadidchilikka mahalliy hokimiyat vakillari ham qarshi edilar. Bu haqda Abdulla Avloniy yozadi: "Mullalar ""jadidchi"larni "munofiq", "mufsid", "Zindik", "dahriy" so'zlari bilan xalq orasida yomonotliq qila boshladilar. Va bularning qilgan bu harakatlari bizning-da qonimizni qaynatub, boylarning yoniga mullalarni ham qo'shub, mullalarga qarshi "jadidchi"larning ham dushmanliklari orta bordi".

Jadidchilik harakati 1917 yilgi Oktabr to'ntarishi tarafdorlari bo'lgan bolsheviklar bilan ham kelisha olmadi. Chunki sho'rolar Turkiston xalqlariga va'da qilgan erkinlik, ozodlik, tenglik va mustaqillik huquqlarini bermadilar.

Bolsheviklar hukumati jadidchilik harakati vakillarini "bosmachilar" tamg'asi ostida yo'qotishga harakat qilib, ularni "millatchi" sifatida qoraladilar. Mana shunday to'siqlar sababli jadidchilik sho'ro davrida 1920-22, 1929-30, 1937-38 yillarda bir necha marta qatag'onga uchradi. Ularning millatparvarlik, vatanparvarlik orzulari sarobga aylandi.

“fuqaroparvar” sho’rolar tomonidan kurtakligidayoq poymol qilindi.

Mustaqillik sharofati tufayli milliy adabiyotimizning kechagi va bugungi taraqqiyot yo’lini yangicha nuqtai-nazardan baholash imkoni tug’ildi. XX asr tongotaridagi jaded adabiyoti Mahmudxo’ja Behbudiy va Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho’lpon, Hamza va Ayniy singari ulug’ yozuvchilarni yetkazib bergani juda xolis aytilmoqda.

Jadidchilik g’oyalarini tiklash va xolis ilmiy baho berish uchun esa, adabiyotning o’zidan o’zgarish va yangilanish ham talab etiladi.

Jadidchilik aslida millatning milliy ko’tarilishi edi. Jadidchilarning o’zlari bu qarashlarini turli badiiy asarlari qatida ifoda etdilar. Natijada adabiyotga jadid obrazi kirib keldi. Davr tazyiqi bu yangi qahramon sifatlarini to’la ochib berishga imkon bermagan bo’lsa ham, jadidchilik ikkinchi darajali personajlar yoki yordamchi obrazlar vositasida badiiy tahlil ob’ektiga aylandi. Bu eng avvalo, jadidchi adiblar ijodida ko’zga tashlandi. Jadid ijodkorlari o’z asarlarida ma’rifatchilik g’oyalarini targ’ib qilib, ijtimoiy shart-sharoitni oynadek aks ettirdilar, bu haqda Cho’lpon shunday yozadi: “Hech to’xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo’lsa, maishat yo’lida har xil qora qirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir”.

O’zbek adabiyotida jadidlar obrazi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo’ldi. Tarixiy sharoit, ijtimoiy voqelik jadid qahramonlarning ham “maqsad va vazifalari”ni belgiladi.

“Yangichilik” yordamida omma “jakriyotdan (Anbar Otin) ongli harakatga, olomondan xalqqa o’sib chiqdi, birlashdi, ma’nan mustahkamlandi. Ular yordamisiz jamiyat hayotida, xalq ahvolidagi jiddiy sifat o’zgarishlari ruhiy inqiloblar yuz berishi amri mahol.

Mana shu haqiqatni birinchi bo’lib anglagan va uni o’z harakatida dasturulamal qilib olgan Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho’lpon kabi ijodkorlarimiz badiiy adabiyotga jadid obrazini olib kirishda karvonboshilik qildilar.

Xalqqa o’z hayotini ko’rsatish orqali uning ko’zini ochish jadid adabiyotining maqsadi edi. Bu bilan jadid adabiyoti hayotga yaqinlashdi va tarbiya vositasini bajardi. Bunday xususiyatlar Fitrat, Hamza, Cho’lpon kabi ijodkorlarimiz asarlarida o’z aksini topdi.

Bu ijodkorlarimiz dramatik asarlari bilan birga nasriy asarlariga ham birinchilardan bo’lib jadid obrazini olib kirdilar, jumladan, Markaziy Osiyo adabiyotida nasrga ilk bor jadid obrazini olib kirgan adib Abdurauf Fitrat hisoblanadi. U o’zining fors tilida yozgan “Munozara” qissasida quyidagi qator masalalrni ilgari suradi.

Eng avvalo, Buxoroda sodir bo’layotgan maorif tizimi izchil kuzatilib jadid obrazi orqali tahlil qilindi.

Jadidchilik va qadimchilik o’rtasidagi ixtiloflar tanqid ostiga olindi. Ularning bir-birlariga dushmanligi Vatanni parchalab tashlashga olib keliashi murosasiz ravishda aytili.

Xor va xaroblarning asosiy sababi musulmonchilik emas, balki o’sha ma’nisiz ixtilofdan ekani ta’kidlandi.

Asardagi jadid obrazi – Farangi muallifining o’zi bo’lib, u o’lkadagi mustamlakachilik va jaholatga keskin qarshi chiqqan yangi qahramon edi.

Farangi: “Xuddi shu o’rinda, men aytaman va butun islom olami ham aytmoqdadir-ki, bu maktub bolalaringizni kofir qilmaydi, balki vatanparvar, baodob komil musulmon qiladi”.

Bu asar ulug’ yunon faylusufi Aflotun asarlari uslubida, ya’ni suhbat-bahs tarzida yozilgan. Bahs Farangi va Mudarris o’rtasida bo’lib, xalqning ayanchli illatlari ochib tashlanadi.

Ana shunday jadid obraziga dastlabki chizgilar Cho’lpon ijodida ham ko’rinadi. Jadid adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Cho’lpon o’z ijodini publisistik maqolalar e’lon qilishdan boshlagan bo’lsa-da, butun umr shoir bo’lib qoldi. Ammo uning poetik merosi nasriy asarlarda ham barq urib turdi. U “yangi adabiyot qanday bo’lmog’i lozim?” degan savolni birinchilardan bo’lib o’rtaga tashlangan va unga baholi qudrat javob berishga intilgan edi. Uning dastlabki nasriy asari hisoblanmish “Do’xtir Muhammadyor” hikoyasida jadid obraziga chizgilar beriladi. Shuning uchun uning nasriy ijodida “Do’xtir Muhammadyor” hikoyasi alohida o’rin egallaydi.

Bu hikoya o’zbek ma’rifatchilik adabiyotida ham o’ziga xos o’rin tutadi. To’g’ri, u hayoliy hikoya. Boshlanishida “Turkistonning qorong’i bir go’shasida “...nomlik uezdni(y) shaharda” degan so’zlarga duch kelamiz. Muallif sarlavha ostidayoq “hayoliy” deb ta’rif beradi.

Ammo hikoyada adibning Turkiston taqdiri haqida kuyib-yonib o’ylashi, xalqni jaholat botqog’idan, nodonlik iskanjasidan qutqaruvchi samarali omilni izlanishi ahamiyatlidir. Hikoyaning bosh qahramoni yetimlikda o’sgan Muhammadyordir. U otasining o’limidan ta’sirlanadi va uning dushmani jaholat ekanligini tushunib yetadi. “ Va jaholat ila chindan olishmoqqa qaror qiladi. Jaholat ila olishmoqning quroli (asbobi)ni esa otasi aytib ketgan edi. Ya’ni, jaholatga qarshi to’p, miltiq, to’pponcha, xanjar, o’q-dori emas, yolg’iz “o’qi-o’qi-o’qi” so’zlaridir!”.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har doim jadid davrida ham bugungi kunda ham har bir insonni jaholatdan faqatgan bilim va aql chiqara oladi. Shuning uchun ham har bir inson ham doim ilm olishdan tolmay harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.Toshkent,Sharq,3-bet.
2. Q.Rafiqov(2021) Mening Prezidentim.Akademnashr
3. Ozbekiston tarixi:Yangi nigoh.Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.1-3 betlar.
4. Vatanparvar gazetasi (2021)
5. Alimova D, Rashidova D "Maxmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri.-Toshkent Akademiya 1999
6. Baldauf Ingeborg "XX asr O'zbek adabiyotiga chizgilar"-Toshkent Manaviyat 2001
7. Abdulla AVLONIY "Turkiy GULISTON yohud ahloq"(nashrga tayyorlovchi M.Maxsumov) Toshkent Oqituvchi 1992